



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№2 (788), 2025-yil 29-yanvar

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ Tahlil

Zamon, talablar, mezonlar o'zgarimoqda. Shu bois, Yangi O'zbekistonda asosiy e'tibor keng qamrovli islohotlarga qaratilayotir. Bu borada davlatimiz rahbari boshchiligidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar yurtimiz taraqqiyotining asosiy poydevori bo'lmoqda. Buning natijasida iqtisodiyotimiz jadal, barqaror rivojlanmoqda. Barcha sohalar qatori sanoatning yirik tarmog'i bo'lgan kon-metallurgiya sohasiga alohida e'tibor qaratilayapti.

2026-yilgacha Navoiy kon-metallurgiya kombinatida qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi korxonada taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Yuqori iqtisodiy o'sishga erishish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishida ustuvor yo'nalishlar va muhim vazifalar belgilab olindi.

Dastur asosida so'nggi sakkiz yilda amalga oshirilgan investitsion loyihalardan ajralib turadi. Bu oltinga jahonning nufuzli birjalari "eng optimal yetkazib beruvchi" sifatida yuksak baho berilgan.

– Ma'lumki, kombinat faoliyat ko'lami, ishlab chiqarish quvvatlarini hajmi, davlat uchun daromadlilik darajasi bo'yicha respublikamiz iqtisodiyotida yetakchilar safida bo'lib kelmog'ida. Shu o'rinda bu boradagi ishlar samarasi haqida ham to'xtalib o'tsangiz.

7,4 milliard AQSh dollar), sof foyda esa 24,4 trillion so'm (yoki 1,9 milliard AQSh dollar), rentabellik darajasi 54 foizni tashkil etdi. Shuningdek, asosiy faoliyatning samaradorligini ifodalovchi YeBITDA ko'rsatkichi bo'yicha rentabellik darajasi 61 foizni tashkil etib, yetakchi jahon amaliyoti darajasiga to'la mos keldi.

Hozirda kombinatni isloh qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, zamonaviy gidrometallurgiya zavodlari, yangi konlar, shaxtalar va boshqa obyektlarni qurish, korxonalar quvvatlarini oshirish hisobiga ishlab chiqarish hajmi, iqtisodiy ko'rsatkichlar oshib borayapti.

■ Dildagi gaplar

Yana bir yilni poyoniga yetkazib, orzu-umidlarni bilan yangi yilni boshladik. Albatta, har bir yilning insonlar taqdirida o'z o'rni bor. 2024-yil ham yurtdoshlarimizning ko'pchiligi uchun xotiralarga boy, orzulari ushlagan davr bo'lib qoldi. Hamkasblarimiz bilan suhbatlarda ularning hayajonli kechinmalaridan ham shunga guvoh bo'ldik.

HAR BIR YILDA HIKMAT BOR



Nilufar ASHUROVA,
"NKMK" AJ AKTB Zarafshon
axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
markazi elektromexanigi.

– 2021-yilda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetini tamomlab, shu yilning o'zida Zarafshon shahar AKTMning Servis xizmat ko'rsatish bo'limida ish boshladim. O'tgan davrda bilim va tajriba orttirdim. Bugungi kunda bo'limimizda o'n nafardan ortiq muhandis-mutaxassislar Markaziy kon boshqarmasi hamda uning tarkibidagi bo'limlarga sanash-hisoblash mashinalarini ta'mirlash va xizmat ko'rsatish ishlarini bajarmoqda.

2024-yilda "Zulfiyaxonim izdoshlari" respublika tanlovining Zarafshon shahar bosqichida faxrli birinchi o'rinni egallab, Navoiy viloyat bosqichida ishtirok etdim. Yakunlangan yil menga oila hamda onalik baxtini hadya etdi. Kelajakda o'z ustimda yanada ko'proq ishlab, yurtimiz rivojiga o'z hissamini qo'shishga harakat qilaman.



Ruslan YO'LDOSHEV,
Markaziy kon boshqarmasi konstruktorlik
bo'limi boshlig'i.

"Muruntov" koni konchilik uskunalari ta'mirlash sexi ishlab chiqarish-texnika byurosi muhandis-konstruktori bo'lib ishlab yurgan kezarim – 2017-yilda meni Markaziy kon boshqarmasi konstruktorlik bo'limiga muhandis-konstruktor vazifasiga ishga taklif etishdi. Shundan buyon konstruktorlik hujjatlarini ishlab chiqib, korxonaning texnik rivojlanishi uchun mavjud uskunalarini, qo'llanilayotgan moslamalarni chizma asosida loyihalab, standart bo'yicha ishlab chiqarishga ta'tbiq etishga harakat qilib kelmoqdaman. Aslida har yili erishgan yutuqlarimdan ruhlanib, yangi rejalar tuzishga odatlanganman. Bu bilan kelajak sari katta-katta maqsadlar qo'yaman. 2024-yil jamoamiz uchun alohida ahamiyatga ega, yangiliklarga boy bo'ldi. Dekabr oyida bo'limimizga boshliq etib tayinlandim. Bu lavozim meni ishga mas'uliyat bilan yondashib, ulug'lanib olib borishga undaydi.

Inson qadri ulug'lanayotgan, yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgan yurtida yashayapmiz. Suhbatdoshlarimiz ham o'z so'zlarida mamlakatimizdagi yangilanishlarni ta'kidlash barobarida yangi yilda o'z gacha shukuh, ulkan maqsadlar ko'zlab mehnat qilishlarini izhor etdilar.

Nafosat ZIYOYEVA
tayyorladi.

IQTISODIY TEJAMKORLIK – DAVR TALABI

Yurtimiz oltin, kumush, mis, uran, qo'rg'oshin, molibden, volfram, temir, ko'mir, neft, tabiiy gaz, nodir va noyob metallar, kaliy tuzlar, fosforitlar kabi ko'plab foydali qazilmalarga juda boy. Ular orasida qimmatbaho metallar alohida o'rin egallaydi. Hozirgi kunda respublikamizda 60 dan ortiq oltin ma'danli konlar o'rganilgan bo'lib, ularning 40 ga yaqini Qizilqum kengliklarida joylashgan. Bu oltin ma'danli konlar Navoiy kon-metallurgiya kombinatining asosiy xomashyo zaxirasiga ega bo'lgan obyektlar hisoblanadi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda o'z o'rni va salohiyati, yuqori malakali yetuk kadrlari va ko'pming kishilik fidoyi ahil jamoasiga ega bo'lgan yirik sanoat korxonasi hisoblanadi. Kombinatin iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida erishayotgan yutuqlari bilan O'zbekiston davrini olamga yoymoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda korxonamizda yangi konlar va yangi zavodlarning foydalanishiga topshirilayotganligi mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish, xalqimiz turmush farovonligini oshirish imkoniyatini yaratmoqda.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati Budjetlashtirish va kontrolling boshqarmasi boshlig'i Umidjon Kostayev bilan suhbatimiz ham keyingi yillarda kombinatda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, tizimda ro'y berayotgan yangilanishlarning ahamiyati mavzusida bo'ldi. U quyidagilarni gapirib berdi:

– Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblangan tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahalliy ishlab chiqarish mahsulot ishlab chiqarish nomenklaturasini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'nalishlarida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tog'-kon sanoatida ham muhim dasturlar qabul qilinib, sohadagi yirik korxonalar



mahalliy korxonalar o'zaro manfaatli bog'langan. Transport, ijtimoiy sohalar, kommunal tarmoqlarda mablag'larni samarali yo'naltirishga qaratilgan ulkan rejalar tuzilmoqda. Ichki imkoniyatlar va foydalanilmagan rezervlarni ishga solish hisobiga mamlakatimiz iqtisodiyotida o'sish kuzatilmoqda. Yirik loyihalarni ishga tushirilib, davlat xaridlarida mahalliy mahsulotlar ulushi ko'paymoqda, eksport hajmi oshib bormoqda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanishga topshirilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar va ilg'or texnologiyalar faol jalb etilayotgani bois, ishlab chiqarish sanoati rivojlanmoqda. Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligidan kon-metallurgiya sohasini rivojlantirishning muhim dastur va puxta o'ylangan investitsion loyihalari izchil tatbiq etilayotgani kombinatning yuksak marralarini egallashiga mustahkam zamin yaratmoqda. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 1-martdagi qarori bilan tasdiqlangan

kombinatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga keng imkoniyat va istiqbol yaratdi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati jahonning oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalari bilan raqobatlasha oladigan zamonaviy korxonaga aylandi.

Mazkur davrda ishga tushirilgan yangi quvvatlar 2024-yilda kombinat tomonidan 2016-yilga nisbatan tog' jinslarini qazib olish hajmini 3 barobar, ma'danni qayta ishlashni 1,7 barobar, oltin ishlab chiqarishni 32,2 foizga, kumushni 66,7 foizga oshirish imkonini berdi. Oltin ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar natijasida kombinat oltin ishlab chiqarish bo'yicha jahonning TOP-10 ta kompaniyalari safida 2016-yildagi 7-o'rindan bugungi kunda 4-o'ringa ko'tarildi.

Bugungi kunda O'zbekiston brendi ostida ishlab chiqarilayotgan "999,9" tamg'ali oltin jahon bozorida o'zining sifati, raqobatbardoshligi hamda tan-narxi nisbatan arzonligi bilan boshqa-

– Bugungi kunda Navoiy kon-metallurgiya kombinati barqaror va jadal rivojlanayotgan kompaniya hisoblanadi. Kombinatin mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelmog'ida.

O'zbekiston iqtisodiyotida kombinat tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida 6,3 foizni va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 13,5 foizni tashkil qilmoqda. Davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda kombinat tomonidan to'langan soliqlar jami daromadning 16,7 foizini tashkil etadi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati respublikamizda eng yirik soliq to'lovchi e'tirofiga ega korxonaga hisoblanadi. Birgina 2024-yilda davlat budjetiga 57,5 trillion so'mlik (4,5 milliard AQSh dollari ekvivalentida) to'lovlar amalga oshirilgani korxonaning iqtisodiy salohiyati yildan-yilga o'sib borayotganligining yaqqol namunasidir. Korxonamizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb 94 trillion so'm (yoki

■ Bugunning mavzusi

INNOVATSION USUL AFZALLIKLARI

Kon-metallurgiya sanoati murakkab texnologik jarayonlar majmuasidan iborat bo'lib, sohada muvaffaqiyat qozonish uchun turli muammolarni hal etish, doimo iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan ishlanmalarni ishlab chiqarishda qo'llanish ehtiyoji tug'iladi. Bunda ilm-fan yutuqlari hamda tajriba mustarakligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'danlarni qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan chiqindilarni transport qilishda quvurlarning yemirilishlarga bardoshlilik muqaddimati oshirish eng asosiy texnologik muammolardan biridir.

Ma'lumki, ma'dan chiqindisi tarkibidagi qum, mayda shag' va boshqa komponentlar transport quvurini muttasil yemirib, qalinligini kamaytiradi. Oqibatda ko'p fursat o'tmay quvurni yangisiga almashtirishga to'g'ri keladi. Bu, Markaziy kon boshqarmasiga qarashli 2-gidrometallurgiya zavodi uchun ham o'ta dolzarb muammo edi. Kombinatin boshqarmasi muammoning yechimini topish yo'lida jiddiy shug'ullandilar. Shu maqsadda, Toshkent shahrida joylashgan, quvurlarni torkret uslubida himoya qilish texnologiyasini O'zbekistonga investitsiya qilgan "Zarbuloq injiniring" mas'uliyati cheklangan jamiyat bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi.

O'zaro muzokaralar natijasida bundan qariyb besh yil muqaddam amaliy faoliyat boshlandi.

– 2-gidrometallurgiya zavodi chiqindini tashish, joylashtirish va aylanma suv ta'minoti sexi 1-sonli magistral bo'tana quvurining 105

metr uzunlikdagi qismida birinchi marta bo'tana quvurlari ichki qismini markazdan qochma betonlash usulida qayta ta'mirlash ishlari tajriba sifatida amalga oshirildi, – deydi sex boshlig'i Farrux Halimov. – Shartnomaga muvofiq ta'mirlash ishlari "Zarbuloq injiniring" pudrat tashkiloti jamoasi amalga oshirdi. Quvur torkret texnologiyasi bilan mustahkamlanib, qayta tiklandi. Ushbu magistral bo'tana quvuri foydalanish jarayonida nazoratda bo'lib, uning holati o'rganildi. 2021-yilning 29-aprel kuni 1-sonli magistral bo'tana quvurining markazdan qochma betonlash usulida ta'mirlangan qismini zavod va pudratchi tashkilot mutaxassislari tomonidan birgalikda ko'zdan kechirilganda, yemirilishlar va boshqa kamchiliklar ro'y bermaganligi ma'lum bo'ldi. Torkret beton qatlami chiqindi tarkibidagi mahsulotlarga chidash berganligi, quvurning ichki yuzasidan torkret beton qatlami umumiy yemirilmas, o'z qalinligini to'liq saqlab qolganligi aniqlandi va tajriba



o'zining ijobiy samarasini ko'rsatdi. Dastlabki tajribada yaxshi natijaga erishilishi ushbu texnologiyani kengroq qo'llashga imkon berdi. 2022-yilning oktabr oyida zavodning 3-sonli magistral bo'tana quvurining 750 metr uzunlikdagi qismi ham ushbu usulda qayta ta'mirlandi. Ayni paytda "Zarbuloq injiniring" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 2-sonli magistral bo'tana quvurining 1 ming 500 metrga yaqin qismida ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. "Korxonamizda investitsiya qilingan torkretlash texnologiyasi respublika qishloq va suv xo'jaligida nasos stansiyalar quvurlarini ta'mirlashga mo'ljallangan edi. Mazkur texnologiya Navoiy kon-metallurgiya kombinati korxonalarida ma'dan chiqindilarni

transportirovka qilish uchun foydalanilayotgan quvurlarning yemirilishiga moslashtirildi. O'tkazilgan tajribalar tufayli magistral bo'tana quvurlarda qo'llanishga mos torkret beton tarkibi aniqlandi. Natijada bu texnologiyani Markaziy kon boshqarmasi chiqindi transport quvurlarini ta'mirlashga ta'tbiq etdik, – deydi "Zarbuloq injiniring" MChJ bosh direktorining maslahatchisi Abror Yusupov.

Torkret usulbi bilan chiqindi quvurlarini qayta tiklash texnologiyasi iqtisodiy jihatdan samaralidir. Chunki yangi quvurlarni sotib olishga hojat qolmaydi. E'tiborlisi, bu usulni qo'llanish evaziga katta miqdorda mablag' iqtisod qilinadi.

Nizomiddin SADRIDDINOV.



■ Tahlil

IQTISODIY TEJAMKORLIK — DAVR TALABI

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Zero, transformatsiyalash — bu qulay investitsiya muhitini yaratish, korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish, xarajatlarni kamaytirish hisobiga daromadlarni oshirish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirishni nazarda tutadi. Ulkan investitsiyaviy salohiyatga ega Navoiy kon-metallurgiya kombinatida transformatsiya jarayonlari muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. "Boston Consulting International Inc Group (BCG)" kompaniyasi bilan hamkorlikda Navoiy kon-metallurgiya kombinatini raqamli transformatsiya qilishning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi ishlab chiqildi, operatsion samaradorlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xorijiy investorlar va xalqaro moliya bozori ishtirokchilari uchun kombinat faoliyatining shaffofligini ta'minlash maqsadida, xalqaro moliyaviy

hisobot standartlariga muvofiq, kombinatning moliyaviy hisobotlari "Deloitte & Touch" xalqaro auditorlik kompaniyasi tomonidan auditdan o'tkazilib, ijobiy xulosa olinmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, 2024-yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga "Fitch Ratings" va "Standart & Poors" xalqaro reyting agentliklaridan ilk marotaba "BB-" darajasidagi "Barqaror" prognozli uzoq muddatli kredit reytingi olindi. Shu bilan birga, agentliklar kombinatning mustaqil kredit to'lov qobiliyatini (SASP) "BB+" darajasida baholadi. Bu esa o'z navbatida xalqaro kapital bozoriga chiqish imkoniyatini yaratadi.

O'tgan yilning oktabr oyida Navoiy kon-metallurgiya kombinatining har biri 500 million AQSh dollari bo'lgan, umumiy qiymati 1 milliard AQSh dollariga teng ilk xalqaro obligatsiyalari muomalaga chiqarildi. Obligatsiyalar ikkita teng transh bo'yicha I transh bilan 4 yil muddatga va II transh

“

2024-yilda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ tomonidan 94 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

- O'sish sur'ati 2023-yilga nisbatan 105,3 foizga teng bo'ldi.

- O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga 57,5 trillion so'm miqdorida soliqlar va dividendlar to'landi.

- Investitsiya dasturi doirasida 789,6 million dollarlik mablag' o'zlashtirilib, 715 ta yangi ish o'rni yaratildi.

- Mahalliyashtirish dasturi doirasida 916 milliard so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida 6,2 trillion so'mlik mahsulot xarid qilindi.

- Xarajatlarni maqbullashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ijrosi mahsulot tannaxrini 3,7 trillion so'mga kamaytirish imkonini berdi.

bilan 7 yil muddatga xalqaro fond bozorida muvaffaqiyatli joylashtirildi. Ta'kidlash joizki, xalqaro fond bozorida xorijiy investorlar tomonidan kombinat obligatsiyalarini sotib olish uchun tushgan arizalarning umumiy summasi 5,5 milliard AQSh dollarini tashkil qilib, obligatsiyalar dastlabki buyurtmasidan 5,5 barobarga oshdi. Xalqaro obligatsiyalarini chiqarilishi Navoiy kon-metallurgiya kombinati va mamlakatimiz uchun muhim voqealardan biri bo'lib, yurtimiz tarixida davlat korxonalar va tijorat banklari o'rtasida eng yirik va muvaffaqiyatli muomalaga chiqarilgan xalqaro korporativ obligatsiyalar sifatida qayd etildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tomonidan ilk obligatsiyalarini chiqarilishini global inves-



torlar hamjamiyati bilan kelgusi samarali aloqalarning ilk qadamlari sifatida e'tirof etsak ayni haqiqat bo'ladi. Ushbu yangilik korxonada ham, mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun ham muhim o'rin egallaydigan tarixiy voqea, investorlar tomonidan qiziqish bildirilishi tufayli korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun kelajakka sarmoya kiritishning muhim qadamlaridan biri bo'ldi. Yurtimizning asosiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beruvchi "O'zbekiston — 2030" strategiyasida mamlakatimiz kon-metallurgiya sanoatini rivojlantirish uchun katta maqsadlar belgilab olindi. Jumladan, 2030-yilga borib, O'zbekistonda yuqori daromadli mahsulot uchun zarur bo'lgan mis ishlab chiqarish 3,5 barobar, oltin — 1,5 barobar, kumush — 3 barobar, uran — 3 barobar oshadi. Mamlakat milliy moliya bozorining barqarorligini, mamlakatning xalqaro kapital bozorlaridan kredit jalb qilish imkoniyatlari, tarkibiy islohotlar o'tkazilishi hamda milliy

iqtisodiyot va moliya bozorlari rivojlanishining ta'minlanganligini ifodalovchi O'zbekiston Respublikasi oltin-valuta zaxiralari tarkibining aksariyat qismini oltin tashkil etadi. Zaxiralar tarkibidagi oltin hajmi bo'yicha mamlakatimiz dunyoning yetakchi davlatlari qatorida o'z o'rnini egallagan. Shundan ko'rinib turibdiki, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining mamlakatimiz oltin zaxiralari shakllantirish, yurtimiz ravnaqi va iqtisodiyoti barqarorligini ta'minlashdagi hisssasi beqiyosdir. Navoiy kon-metallurgiya kombinati o'tgan davrda erishgan yutuqlar juda hayratlanarli va faxrlanishga munosibdir. Kombinatlarning kelgusida yanada zamonaviylashtirilgan korxonalar bo'lib, uning ahlil jamoasi o'zining ulkan salohiyati bilan katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritish yo'lidagi dadil qadamlarini davom ettiraveradi.

Dildora KARIMOVA
suhbatlashdi.

■ Актуальная тема

Природный уран – основной экспортный продукт Государственного предприятия «Навоийуран», является одним из важных, если не самым важным ресурсом для мирового производства «зеленой» энергии посредством ядерных технологий. Мне представилась уникальная честь и возможность своими глазами увидеть, как этот стратегический ресурс вносит свой вклад в развитие экономики нашей страны и укрепление международного сотрудничества.

БИЗНЕС, КОТОРЫЙ НАХОДИТ ОТКЛИК В МИРЕ

После обретения независимости в 1991 году Республика Узбекистан стала полноценным хозяином своих уранодобывающих активов, в конечном итоге сформировав государственную компанию, сегодня известную как Государственное предприятие «Навоийуран». Руководство предприятия постоянно модернизировало горнодобывающее производство, внедряло передовые методы добычи и расширяло геологоразведочные работы, сохраняя при этом твердую приверженность экологически ответственным методам работы.

Хотя по объему производства мы значительно отстаем от более крупных стран-производителей урана, но все же Узбекистан играет значительную роль в поставках природного урана для атомных электростанций по всему миру. По данным «Всемирной ядерной ассоциации» (WNA), Республика Узбекистан стабильно входит в десятку крупнейших мировых производителей урана. В последние годы наша страна в среднем ежегодно производила более 3000 тонн урана.

Государственное предприятие «Навоийуран» на сегодняшний день является единственным производителем урана в Республике Узбекистан. Наш отдел занимается налаживанием международных партнерских отношений и управлением внешнеторговых экспортных договоров. Ежедневно мы с моими коллегами ведем активные переговоры с нашими иностранными партнерами, чтобы ответ-

ственно удовлетворить мировой спрос на природный уран.

Следует отметить, что природный уран не используется непосредственно на АЭС. Сначала природный уран преобразуется в гексафторид урана, после чего производится обогащение изотопа урана U235 – делящегося компонента, который позволяет осуществить цепную реакцию в реакторах. В этой связи грузополучателями нашей продукции выступают т.к. «конверсионные предприятия» – заводы, оказывающие перерабатывающие услуги на коммерческой основе, такие как французский «Орано», канадский «Камеко», американский «Конвердин» и др.

При этом стратегическое расположение нашей страны в сочетании со стабильным управлением государством в целом и предприятия в частности позволило нам развивать долгосрочные экспортные отношения со странами Азии, Европы, Северной Америки и других регионов мира. Поскольку ядерная энергетика становится все более важной в борьбе с изменением климата, наше предприятие намерено сохранить – если не расширить – свою крепкую, важную позицию на мировом рынке природного урана.

Мы гордимся тем, что гарантируем, что наши методы добычи соответствуют строгим экологическим стандартам. Начиная с новых проектов по геологоразведке до методов производства, таких как подземное выщелачивание, мы постоянно стремимся минимизировать воз-

действие на окружающую среду, одновременно максимизируя эффективность.

Несколько лет назад наша команда вела напряженный раунд переговоров с восточноазиатской компанией, которая хотела диверсифицировать свои поставки урана. Несмотря на языковые барьеры и различия в правовых рамках, нам нужно было подготовить проект контракта с нуля до готового к подписанию в течение нескольких дней. Я сам, мой коллега из

юридического отдела и представители иностранной компании буквально жили в нашем офисе в Ташкенте в течение трех дней и трех ночей, готовили проект контракта без перерыва и по очереди спали на единственном диване. В конце этого интересного «путешествия» мы достигли соглашения за общей чашкой зеленого чая – основного напитка в Узбекистане. Эта история является свидетельством того, как гостеприимство, открытое общение и, конечно, упорный труд могут преодолеть культурные и деловые различия.

Заглядывая вперед, можно с уверенностью сказать, что урановая промышленность Республики Узбекистан готова к расширению путем внедрения передовых инновационных технологий в области. Растущий интерес к ядерной энергетике во всем мире, обусловленный потребностью в надежных источниках энергии с низким содержанием углерода, дает возможность нашему предприятию укрепить существующие партнерские отношения, а также развивать новые. Мы стремимся к расширению наших партнерских отношений и рынков сбыта, совершенствованию технологической добычи и дальнейшему повышению нашей экологической ответственности для благо нашего народа и будущих поколений.

Хасан САФАРОВ,
директор по внешнеэкономическим связям и торговле ГП «Навоийуран».

■ SHKB Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi – 60 yoshda!

HARBIY TARTIB, QAT'IY INTIZOM BIRLIGI

Vatanni himoya qilish, bu – faqat qo'lga qurol olib chegaralarda hushyor turish emas, balki Vatanning moddiy va ma'naviy boyliklarini qo'riqlash ham muqaddas burch, aslida!

Shimoliy kon boshqarmasiga qarashli bo'linmalarni qo'riqlash, ruxsatnomali tartibni o'rnatish, tovar-moddiy boyliklarning talon-toroj qilinishining oldini olish maqsadida 60 yil muqaddam Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi tashkil etilgan edi.

Otryad nomi ham, undagi jarayon va mehnat faoliyati ham qat'iy harbiy qoidalarga asoslanganini ko'rsatadi. Kon boshqarmasida sanoat tarmoqlari, texnologik jarayonlarning rivojlanishi, qolaversa, respublikamizdagi ijtimoiy-siyosiy islohotlar otryad jamoasi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi otryad besh yoki o'n yil oldingi Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi emas, uning tartib-qoidalari, kadrlar siyosati va moddiy-texnik bazasi bata-motam yanqilangan. Faoliyatimiz ruxsatnomali tartibni amalga oshirish, korxonalar hamda "Dovg'istov" va "Kokpatas" sanoat maydonlarida tovar-moddiy boyliklar talon-toroj qilinishining oldini olish, maxsus yuklarni kuzatib borishni taminlash, mavjud texnik-muhandislik hamda aloqa vositalaridan to'g'ri va unumli foydalanish, tabiiy ofatlar va favqulodda holatlar ro'y berganda ularni, bartaraf etishda qatnashishdan iborat. Ayni paytda

otryadga 250 nafardan ortiq xodim mehnat qilmoqda. Ishlab chiqarishning kengayishi, korxonada va tashkilotlar sonining ortishi ishchi-xodimlarimiz zim-maciga ko'proq vazifa yuklaydi. Ana



shularni inobatga olib, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining buyrug'iga asosan 2022-yil 29-dekabrda "Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash xizmati to'g'risida" namunaviy Nizom tasdiqlandi. – deydi otryad rahbari Tolib Suyunov. Otryad xodimlarini Vatn ravnaqi, aholi farovonligi yo'lida sergak turgan posbonlarga mengzash mumkin. 2024-yilda otryad xodimlari sa'y-harakatlari bilan kon boshqarmasi tasarrufidagi korxonalarda yo'l qo'yilgan kam-chiliklar yuzasidan 776 ta tartibbuzarlik holatlari aniqlanib, qariyb ikki milliard so'mlik tovar-moddiy boyliklari ushlab qolingan. Ishchi-xodimlarning o'z ishiga sadoqatida ularga ustozlik qilgan, tarbiyalagan soha faxriylarining nomlarini alohida tilga olish zarur. – Viktor Melnik, Boyquvat Yo'ldashev, Dehqon Hamroyev, Galina Razuvayevalar shular jumlasidan. Shogirdlar ustozlar faoliyatining ishonchli davomchilari bo'la

olishmoqda. Jamoada ko'p yillardan buyon mehnat qilib, obro' - e'tibor qozonayotgan komanda boshliqlari Bahodir Rahmatov, Galim Tulekov, Shaxob Shukurov, xizmatni tashkil qilish bo'yicha yo'riqchi G'iyosiddin Saparniyozov, otryad starshinasi Baxtjan Tulekov, guruhi boshliqlaridan Murod Erkayev, Akmal Hamidov, Proza Maydabekova, Anvar Jo'rayev, Marat Masabayev, Abror Do'stov, nazoratchilar Oybek Ostunov, Baxtiyor Jumayev, Samad Obloyev, Rinat Baydullayev, soqchilar Muzaffar Isoqov, Bobir Jabborov, Bekmirza To'raqulov, Feruzjon Abdullayev kabi xodimlarining xizmati e'tirofoga loyiq. Shimoliy kon boshqarmasida ishlab chiqarishda erishilayotgan yutuqlar zamirida Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash otryadi jamoasining ham munosib hisssasi bor.

Durdona HOSHIMOVA.

■ Davlat mukofoti sovrindorlari

“Sharqiy” va “Dovgiztov” konlarida tarkibida qimmatbaho ma’danli boyliklar bo’lgan kon jinslarini tashish vazifasi Shimoliy kon boshqarmasi Avtomobil transporti boshqarmasi jamoasi zimmasiga yuklatilgan. Kon ma’danlari avtoag’dargichlar yordamida karyerlardan tashib chiqilib, temiryo’l dumpkarlariga yuklanib, 3-gidrometallurgiya zavodiga yetkazib beriladi. Konchilik texnikalarini boshqarish insonlardan matonat va mahorat talab qiladi. Ahil jamoa oldida turgan rejalarning bajarilishida dispetcherlik xizmati xodimlari, jumladan “Shuhrat” medali sohibi Shodiyor Umarovning ham hissasi bor albatta.

Shodiyor aka Uchquduq shahrining Alisher Navoiy mahallasi-dagi besh qavatli uyning 5-qavatida istiqomat qiladi... Chiqquncha sog’ odamni ham charchatadigan zinapoyalar... Bu ellikka yaqin zinalardan har kun bir oyoq bilan chiqib-tushish Shodiyor uchun hayotida o’tqazgan qiyinchiliklarga solishtirganda anchayin oson ekanligini keyinroq angladik...

U Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida tug’ilib, oddiy oilada voyaga yetgan. Ortidan to’rt nafar ukasining ergashishiga ishonib, oliy ma’lumotli bo’lishga intildi. 2000-yil Toshkent davlat texnika universitetini tugatib, yosh mutaxassis sifatida Shimoliy kon boshqarmasiga ishga jo’natildi. Kursdoshlarining ko’pi Qizilqumning qoq markazi bo’lgan – Uchquduqqa kelishga unchalik shoshilishmadi. Talabalik yillari ota-onasiga yordam deya goh xonadon loyusvogi’ni, goh bir tadbirkorning yuzlab qopini ko’tarib arzimagan choycha-qolgan yigit uchun NKMKday korxonada ishlash yo’lanmasi katta baxt bo’lganini o’shanda biroz tushundi-yu... lekin bugun katta baxtligini yanada chuqurroq his etyapti. Ko’pchilik hamqishloqlari unga havas qilishdi. Hattoki, “Shodiyorning mening bolamni ham o’sha yerlarga ishga olib ketsin, ilmiy, mehnatkash bola”, deyidiganlari ham topildi. Butun umr traktor haydab, oila tebratgan otasi Umar aka va tuman shifoxonasida faroshlik qilib, bo’g’lining kelajagiga ishongan onasi Mehriniso opaning quvonchlarini ming quvonchga ulandi o’sha kunlar...

Afsuski, Shodiyor Uchquduqda ish boshlaganining birinchi qishidayoq oyoq va qo’llarini sovuqqa oldirdi. Qancha muolajalar foyda bermadi. U bir oyog’idan, ikkinchi oyog’ining panjalaridan ajralib qoldi. Keyinchalik barmoqlarini kesib tashlashga to’g’ri keldi...

– Katta farzand bilan bog’liq orzularning chilparchin bo’lishini hammadan ko’ra men yaxshi bilardim, – deb eslaydi Shodiyor. – Kolxozda traktorchilik qilgan otam doim o’qi, bizday qora moyga botib yurmaysan, derdi. O’zim iqtisod sohasini yaxshi ko’rsam ham baribir taqdir meni texnikalar bilan oshno qildi. Endi ishlayman, otanamga, ukalarimga yordam beraman, degan paytimda nogiron bo’lib qoldim. 2001-yilda hayotimni o’zgartirib yuborgan baxtsiz voqea yuz berdi. Qani edi, do’xtirlar yashamaydi degan gapni aytasa edi, deyman. Men bilan Navoiy-Toshkent oraliq’ida yugurgan onam va otamni ko’zim qiymaydi. Nogironlik aravachasida kasalxona

■ Turli kasb egalari

MAS’ULIYATNI HIS QILIB

Respublikamizning barcha tashkilot va idoralarida tarixiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va texnik ahamiyatga ega hujjatlarni arxivlar saqloviga to’liq hamda ma’lum muddatga qabul qilish va saqlash tizimli ravishda yo’lga qo’yilgan.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyat boshlagan ilk davrdan unda geologiya va ilmiy-texnik yo’nalishdagi hujjatlar saqlanadigan Markaziy arxiv, shuningdek, kapital qurilish bo’linmasining texnik arxivi tashkil qilingan bo’lib, ayni vaqtda texnik arxiv kombinat kapital qurilish boshqarmasi tarkibidadir.

– Arxivimizda davr talabi bilan zarur hujjatlarning nafaqat qog’oz, balki elektron formati ham yaratilgan, – deya so’z boshladi arxiv xodimi X.Teshayeva. – Bu juda qulay bo’lib, ular bizga hujjatni tezda aniqlash imkonini beradi. O’zbekiston Respublikasining “Arxiv ishi to’g’risida”gi Qonunining 23-moddasida tashkilot, muassasa, korxonalarining arxiv hujjatlari, shuningdek, jismoniy shaxslarning shaxsiy arxiv hujjatlari saqlash arxiv tomonidan mustaqil ravishda amalga oshirilishi belgilab qo’yilgan.

Vazifamiz ko’lamiga respublikaning loyiha tashkilotlari, kombinat bo’linmalarining loyiha va konstruktorlik byurolaridan keladigan, qurilayotgan obyektning loyiha-smeta va texnik hujjatlarini qog’oz va elektron shaklda qabul qilish, ularni hisobga olish va saqlanishini ta’minlashdir. Shuningdek, kombinat boshqarmasi bo’linmalari xodimlariga xizmatda foydalanish uchun loyiha hujjatlarining arxiv nusxasini berish, bo’linmalari va xizmatlarni yangi kelgan hujjatlarning tegishli qismi bilan tanishtirish, loyiha hujjatlarining nusxasini ko’rib chiqish va kelishish uchun kombinat bo’linmalariga, ekspertiza o’tkazish uchun loyiha hujjatlarini arxiv nusxasini davlat ekspert tashkilotiga, obyektning loyiha hujjatlarini o’sha bo’linmalarda doimiy saqlash uchun yuborish, loyiha hujjatlarining elektron bazaga o’z vaqtida kiritilishini ta’minlash, loyiha tashkilotlari tomonidan o’zgartirishlar kiritilgan loyiha hujjatlarini aktual holatda saqlash, Investitsiya departamenti, kombinat bo’linmalarining kapital qurilish boshqarmasi va bo’linmalari xodimlarini loyiha tashkilotlaridan kelgan loyiha hujjatlarini bilan tanishtirish, mutaxassislarning loyihalari bo’yicha bildirgan fikrlarini to’plash ham bizning zimmasimizda. Bo’limimiz tomonidan amaldagi me’yoriy hujjatlarga asosan

saqlanishi shart bo’lmagan hujjatlar ajratilib, inventarizatsiyadan o’tkaziladi. Bo’linmalardagi texnik arxivlarga uslubiy rahbarlik qilib, ularga loyiha hujjatlarini to’g’ri hisobga olishda amaliy ko’mak beramiz.

Quriladigan obyektlar bo’yicha loyiha hujjatlar ishlab chiqish “O’zgeorangmetli” MChJ, Markaziy loyihalash byurosi va boshqa qator loyiha tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Masalan, “O’zgeorangmetli” MChJ tomonidan “Muruntov” konini o’zlashtirishning V navbati 1-bosqichi, shu kondagi sanoat obyektlarining elektr ta’minoti, “Zarmitan” konining quyi sathlarini o’zlashtirish, “Pistali” konida oltin tarkibli ma’danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish (6-GMZ) bo’yicha loyiha hujjatlar ishlab chiqildi. “Kokpatas” va “Dovgiztov” konlarida ma’dan qazib olish loyiha hujjat ishlari Markaziy loyihalash byurosi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Keladigan loyiha hujjatlar, ishlanmalar, texnik iqtisodiy asoslar tasdiqlanib, amalga oshirguncha bosqichli jarayondan o’tadi. Ular nafaqat mutaxassislarning, balki ekologlar, SES, sanoat xavfsizligi, yong’in xavfsizligi va yana bir qator boshqa xizmatlar tomonidan ko’rib chiqilishi va tasdiqlanishi lozim. Agar ma’lum loyiha yoki loyiha hujjatlar bo’yicha mutaxassislar tomonidan e’tiroz, fikrlar, sharhlar bo’lsa, loyiha hujjatlarini uni ishlab chiqqan tashkilotga qayta ishlash yoki to’ldirish uchun qaytariladi. Hozir arxivda 35 mingdan ortiq hujjatlar saqlanmoqda, 2023-yilda 450 ta kirish va 333 ta chiqish hujjatlarini, o’tgan yili esa 475 ta kirish va 330 ta chiqish hujjatlarini ro’yatga olingan.

Ayni vaqtda bo’limda ikki nafar kishi ishlayapmiz. Har uch yilda “O’z.arxiv” agentligi huzuridagi Ilmiy-uslubiy markazning Navoiy filialida malakamizni oshirib boramiz.

Hujjatlarining butunligicha saqlanishi, ulardan doimiy foydalanish imkoniyati yaratilishida arxivlar hozir ham, bundan keyin ham muhim ahamiyat kasb etib qolaveradi.

A.AXMEDOVA.



MATONATLI INSON



hovlisida o’tirib, yoshi ulug’ odam bilan gaplashib qoldim. U shunday motivatsiya berdi, bu so’zlar yashashga bo’lgan ishtiyoqimni qaytardi. O’lim sendan yuz o’girayotgan ekan, u tomonga shoshib nima qilasan? Bir oyoq, ikkita qo’l bilan yashash uchun imkoniyating borku, deya ruhlantirdi.

Ko’chaga chiqqanimda men kabi imkoniyati cheklangan odamlarni ko’rdim. Ularda ko’chaga chiqsam hamma menga qaraydi, degan tushuncha bor. To’g’ri, bunday holatdan chiqib ketish qiyin, ammo ijtimoiy hayotga qo’shilish ketishni uddalasa, mehnat qilib, halol pul topsa bo’ladi. Buning uchun yuragida yashashga ishtiyoq kuchli bo’lishi shart ekan.

Dastavval xayolimga hammasi tugadi, degan fikr kelardi. Lekin g’ururim bironing qo’liga qarab o’tirishga yo’l qo’ymasdi. Shunday

paytlarda erkak kishi uyda o’tirib qolmasdan oilasini boqishi kerak, deb turli kasb-hunarlariga qiziqib ko’rdim. Murakkab kezlarda korxonam jamoasi bir kun bo’lsada meni yolg’izlatmadi, rahbarlar yana ishga olishdi. Bugun boshqarma ekspluatatsiya bo’limi dispetcheri bo’lib ishlayapman. Ijtimoiy himoyam yaxshiligi bois, ba’zida nogironligim ham esimdan chiqadi. 4 nafar farzandim bor. Ularning baxti kamoli uchun er-xotin mehnat qilyapmiz. Katta o’g’lim harbiy bo’lishni orzu qiladi. Bir qizim matematikaga, boshqasi adabiyotga qiziqadi.

Halol ishlab, harakat qilsa, Alloh har tomondan berar ekan. Mehnat qilsang, rohatini ko’rasan, deb shunga aytishadi, shekilli. Davlat mukofoti to’g’risida kutilmagan xabarni eshitib, hayron qoldim. Chunki medal tugul, biror oddiy mukofot olish ham xayolimga kelmagandi. 2023-yilda “Shuhrat” medali bilan taqdirlanganda quvonchimning cheki yo’q, e’tibor va e’tirofdan juda xursand edim. O’sha lahzalardagi hayajonimni so’z bilan tasvirlay olmayman. Shunda har qanday holatda ham ortga chekinmaslik kerakligini anglaganman.

Yilda bir marotaba reabilitatsiya markaziga davolanish uchun borib u yerda turli darajada imkoniyati cheklangan, aksariyati otanasini, turmush o’rtog’i yoki boshqa kimlarga qarab bo’lib qolgan insonlarni ko’rdim. Ular ham harakat qilsa, ishlasa bo’ladi-ku, deb umrini zoye ketkazayotganiga achinaman. Oralarida birorta hunarni o’rganib, tirikchiligini qilib ketsa bo’ladiganlari juda ko’p. Bersang yeyman, deb yotaverish juda noto’g’ri ish. Nogiron degani uyda qamalib o’tirish kerak, degani emas. Alloh bergan imkoniyatdan to’g’ri foydalanish lozim. Imkoniyati cheklangan shaxslarning harakati, fikrlashi sog’lom odamlarnikidan yaxshiroq bo’lsa bo’ladiki, yomon bo’lmaydi. Faqat inson o’z oldiga biror maqsad qo’yib, intilsa bo’ladi.

Matonatli inson Shodiyor Umarovning hayoti, fikr-mulohazalari kimgadir ibrat bo’lsa ne ajab!

Laylo KARIMOVA.

Коллеги отзываются о ней как о волевом, требовательном специалисте. Она не приемлет незавершенности в делах, недосказанности в словах и неопределенности в намерениях. Ее принцип – делай свою работу так, чтобы за нее не было стыдно. Таково же отношение Дилыра Эбедяева, руководитель группы учета кадров отдела кадров ПО “НМЗ”, ждет и от своих коллег.

ВСЕ БУДЕТ ПРАВИЛЬНО, НА ЭТОМ ПОСТРОЕН МИР

На завод она пришла 20 лет назад. Вчерашняя студентка Навоийского государственного горного института Дилыра приступила к работе контролера электромонтажных работ отдела технического контроля. Она и сегодня прекрасно помнит и с теплом отзывается о своем наставнике мастере ОТК Людмиле Бойко, встретившей в отделе молодую выпускницу горного института. В этом же отделе много лет трудился ее отец Назим Эбедяев. В задачи Дилыры входили контроль сборки электрических шкафов новых станков и станков, поступивших на ремонт в объединение. Работа нравилась, было интересно. Однако задержаться надолго в ОТК не получилось.

– Профессию сотрудника отдела кадров я сама не выбирала. Все вышло само собой. В 2005 году меня заметил тогда работавший в должности зам. директора по кадрам ПО “НМЗ” Нишон Эсиргапов, – вспоминает героиня. – Перевели в отдел кадров на период временно отсутствующего сотрудника. С 2005 по 2007 годы работала в отделе кадров. Потом вышла замуж и в 2007 году ушла в отпуск по уходу за ребенком. Еще будучи в декрете мне позвонили и предложили постоянную работу в кадрах, в связи с тем, что одна сотрудница уволилась.

За более чем 16 лет кадровой службы Дилыра Назимовна изучила эту профессию, что называется, «от и до» и сделала вывод: хороший кадровик – это, прежде всего, хороший психолог. Принять правильное решение о человеке помогают знания именно в этой области, считает она, плюс опыт, интуиция и правильные вопросы.

– Мы работаем с людьми. Поэтому важен навык ведения переговоров. Случаются кризисы управленческой системы, недопонимание между работником и работодателем – это зона работы специалиста по управлению персоналом. Его задача анализировать, убеждать, искать компромиссы и конструктивные решения, – делится героиня. – Умение договариваться помогает предотвращать конфликты, разрешать сложные ситуации. Работа связана не только с людьми, в большей степени с делами (документами) на них. Поэтому необходимо работать с программами электронного документооборота и информационными системами. Уметь находить, анализировать правовую информацию и применять ее на практике. При этом важно быть гибким, оперативно перестраиваться под текущую ситуацию. Законодательство и рынок труда стремительно меняются – нельзя цепляться за прошлый опыт. Появляется комплексный подход. Это означает, что кадровик должен разби-



раться не только в кадровом делопроизводстве, трудовом законодательстве, но и знать основы налогового и архивного законодательства, вопросы защиты персональных данных.

Вникая глубоко в процесс работы, Дилыра не забывает о главном предназначении женщины – хранительнице домашнего очага, матери, жены. Она гордится своей семьей. С супругом Нариманом Суфьяновым воспитывают двоих детей. Сын Исмаил мечтает стать IT-программистом. Дочка, второклассница Сафира, гимнастка, регулярно выезжает на соревнования по Узбекистану и другие страны. Из Дубая, например, привезла медаль за первое место. Как не восхищаться детьми и не поддерживать в том, что у них хорошо получается!

У самой же Дилыры хорошо получается вести и документооборот, и хозяйство, а еще и вкусно готовить. Как истинная крымская татарка она изумительно жарит чебуреки с мясом и сыром, и варит в турке ароматный кофе! В их доме часто собираются родственники и друзья, которых она угощает кулинарными шедеврами.

– Все будет правильно, на этом построен мир, – использует фразу из любимого романа М.Булгакова “Мастер и Маргарита” Дилыра Назимовна. – То есть все будет так, как и должно быть, поэтому советую людям никогда попросту не волноваться и жить по совести. И тогда будет получаться везде и во всем!

Ситора ЯТИМОВА.

■ Uchquduqdan xabarlar

Mamlakatimizda ishsizlar sonini qisqartirish, aholiga qulayliklar yaratish, mavjud bo’lgan muammolarga yechim topish maqsadida, tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarning bandligi ta’minlanmoqda.

BANDLIK – FAROVONLIK OMILI

O’tgan 2024-yilda Shimoliy kon boshqarmasiga Uchquduq tuman kambag’alilikni qisqartirish va bandlikka ko’maklashish bo’limi tomonidan yo’naltirilgan qabul kvotalari orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj 150 nafarga yaqin fuqarolar ishga qabul qilindi. Ularning 100 nafardan ortig’i kon boshqarmasi O’quv kursida o’qitilib, ikkinchi kasbga yo’naltirildi. Shuningdek, kon boshqarmasida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent davlat transport universiteti bitiruvchilaridan 120 nafarining bandligi ham ta’minlandi.

Dilshunos Norova bir necha yil ilgari turmush o’rtog’i bilan Rossiya davlatiga borib ishladi. Musofirchilik, qolaversa, ikki nafar farzandining sog’inchi uning nafaqat ruhiyatiga, balki sog’ligiga ham ta’sir qildi. O’zbekistonga qaytgach, mashqaqatlar bilan ishlab topgan pulining yarimidan ko’pi sog’liklarini tiklash uchun sarflandi. Ana shunday kunlarning birida Dilshunosni ishga taklif qilishdi. Unga o’n yillar o’zi ishlashni orzu qilgan korxonaga – Shimoliy kon boshqarmasiga kvota berildi. Mutaxassisligi yo’qligi bois, u boshqarma binosida farosh bo’lib ishlamoqda. Bundan o’zi ham, oilasi ham rozi. Eng asosiysi, o’z yurtida, bolalari qurshovida yashayapti.

Dilshunos ishdan bo’sh paytlarida tikuv mashinasida quruqlardan ko’rpa-ko’rpachalar tikadi. Bularga xaridorlar yetarli. Ayol zotining qo’li gul. Ozigina sharoit va imkoniyat berilsa, mohir qo’llari bilan mo’jizalar yarata oladi. Oilasi uchun barcha imkonini ishga soladi. Ijtimoiy jihatdan qiyin ahvoldagi xotin-qizlar, ayniqsa, oilalarni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan “Kambag’alilikdan farovonlik sari” dasturi D.Norova oilasining hayot tarzini tubdan o’zgartirdi. Bunday misollarning ko’payayotganligi quvonarli, albatta. Dilshunosning turmush o’rtog’i Umidjonga mahalla tavsiyasi bilan aravachali mototsikl olib berildi. Endilikda u ham halol mehnati bilan oila tebratmoqda.

Bugungi kunda sport bilan shug’ullanish ommaviy tus olmoqda. Zero, sog’lom turmush tarzini qo’llab-quvvatlash dolzarb masala va u sport bilan chambarchas bog’liq. Shimoliy kon boshqarmasida sportni ommalashtirish maqsadida, o’tgan yili korxonaga ishchi-xodimlari o’rtasida mini-futbol, stol tennisi, shaxmat-shahqala, voleybol kabi sport musobaqalari o’tkazildi.

SPORTNI SEV, SPORT BILAN YASHA!

– Joriy yilda ham qator sport turlari bo’yicha musobaqalar o’tkazishni maqsad qilganmiz. Bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrda “Jamoaviy sport turlarini rivojlantirish va iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori dasturulamal bo’lmoqda. Kombinat tizimida sportga e’tiborning natijasi o’laroq Uchquduq sporti nafaqat viloyatda, balki mamlakatimizda ham tanilqi. Sport majmuamizda ommaviy sportni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yetarli. Haftaning har payshanba va shanba kunlari ishchi-xodimlar uchun sport kuni deb e’lon qilingan, – deydi Uchquduqdagi “Lochin” sport-sog’lomlashtirish majmuasi direktori Gulnora Masaguddinova.

“Lochin” sport-sog’lomlashtirish majmuasida “Quvnoq startlar” sport tadbiri bo’lib o’tdi. Musobaqada “NKMK” AJ Shimoliy kon boshqarmasi, “Navoiyuran” DK Geotexnologik koni va “NKMK jamg’armasi” Uchquduq hududiy boshqarmasi ishchi –xodimlaridan tashkil topgan 8 ta jamoa ishtirok etdi. Bellashuvlar yakunida Shimoliy kon boshqarmasi jamoalari ikkita bosh sovrinni qo’lga kiritdi.

L.MAHMUDOVA.

Zarafshon

Misralarda Vatan namoyon!
Ilhom uyg'ondi

Onam rayhon taqar edi chakkasiga...

Onam rayhon taqar edi chakkasiga,
Hovlimizni tutar edi gulning isi.
Ko'ltapo'shak kiyar edi yarashiqli,
Ikki o'rim sochi kabi go'zal ismi.

Yonoqlari oydek edi, qoshi kamon,
Bo'ylariga yarashardi keng kuylagi.
Tol shoxiga osilgandi doka ro'mol,
Ro'mol emas hilpirardi dil bo'lagi.

Qaldirg'ochlar onamdayin parvonadir,
Boshim uzra charx urardi so'rab ahvol.
Bugun esa onam yo'qdir, ekilmas gul,
Ayvon buzib tashlanganda, ko'ngil - malol!

Ariq ko'mib yuborilgan, o'smas tol ham,
Menga aziz bolaligim o'tgan dargoh.
Samodagi zuhro kabi yonib turar,
Ota uyim - onam yurgan keng qiblagoh!

Shunchaki, dunyodan ketmabman o'tib

To'maris, otingning bergin jilovin,
Men haqning jangiga kirmoq istayman.
Qamchini qo'limdan qo'ymay, savalab,
Anavi g'irromni yiqmoq istayman.

Alpomish berarsan balki, tulporing,
Or uchun talashar bir nabirangga.
Balki Barchinoyini hamrohim etib,
Oq yo'l tilarsan men ham, zavjangga.

Kurashib, kurashib holdan toyganda,
Bir qultum suv tutgin ona Zarafshon.
Qizilqum gardingni ko'zimga surtib,
Men kurash yo'lidan ketyapman hamon.

Meni qo'lagaydir ishq otashlar,
Qalamni o'zidan ortiqroq sevib.
So'z yukin ardoqlab ko'tarsam, demak,
Shunchaki, dunyodan ketmabman o'tib.

Odil Hotam qaydadir?

Ustozim, qadringiz o'tyapti yomon,
Topolmay izingiz qovrilar jonim.
Hamisha adolat istaydi inson,
Ko'rsangiz, otashda kechmoqda holim.

Siz yurgan bog'larda sokinlik, sukut,
Ijodning qozonin qaynovi o'zga.
Qalamning zalvori bo'lgan-ay unut,
"Yilt etgan yulduzlar" cho'p suqar ko'zga.

Havaskor shoirlik davosin qilar,
Lek, "so'z"da bilmaydi so'zlarning o'rnin.
Haq so'zni aytсам gar, yuzimni tilar,
Ma'qullab fikrini, jiyirar burnin!

Ustozim, qadringiz o'tyapti yomon,
She'r yozar juda ko'p, so'zsevar taqchil.
Qalamkash so'z qadrin bilsa gar har on,
Ijodi sevilib, nomlanar - xalqchil!

Muhayyo NAZAROVA.

Ayting sizni qanday unutay?

Sevsam agar, o'zimdand kechib,
Jonu jahon so'zimdand kechib,
Devonaman aqlimdand kechib,
Ayting sizni qanday unutay?

Titramoqda bezovta yurak,
Qo'shiq endi kimlarga kerak,
Dod solmoqda sizsiz bu falak,
Ayting sizni qanday unutay?

Kemirmoqda qalbimni hijron,
Ketmoq uchun bo'lsaydi imkon,
Sizsiz endi yashashim gumon,
Ayting sizni qanday unutay?

Tillarimni kessam qaniydi,
Ko'zlarimni o'ysam qaniydi,
Vujudimni bo'lsam qaniydi,
Ayting sizni qanday unutay?

Yurakkinam titrab turibdi,
Sizsizlikka ko'nmay yuribdi,
Olloh har on holim ko'ribdi,
Ayting sizni qanday unutay?

Belbog' bekorga emas

Ortga qadam tashlama erkak,
Yoring ko'zin yoshlama erkak,
Tug'ilgansan tayanch bo'lishga,
Minnat oshin oshlama erkak.

Qoyadek bo'l, tog'lardek mag'rur,
Yuragingdan o'chmasin g'urur,
O'rnak bo'lgil saxovatda sen,
Farzandlaring yashasin masrur.

Erkak so'zi unvondir bilsang,
Olam kular bu so'zdan kulsang,
Sen botirsan g'amga dosh bergan,
Yer-u zamin titraydi yursang.

Belda belbog' bekorga emas,
G'iybat, hasad shunqorga emas,
Erkak bo'lib tug'ilgansan bil,
Mag'lub bo'lish, tulporga emas.

Mening yoshligim

Shodlikka limmo-lim hayot karvoni,
Barcha yillar ichra, yillar sultoni,
Umrinning eng nafis beg'ubor oni -
Mening bolaligim, mening yoshligim.

Tashvishsiz g'ururla tik turgan boshim,
Qalbidamda portlagan mehr quyoshim,
Sevinchdan to'kilgan bir tomchi yoshim -
Mening bolaligim, mening yoshligim.

Sochimni siypalab o'rgan jamalak,
Jilosin olamga sochgan kamalak,
Beg'ubor chamanga chorlagan malak -
Mening bolaligim, mening yoshligim.

Bog'ni iftixorla madh etgan bulbul,
Gulzorni yashnatgan alvon atirgul,
Sokin go'shalarga yetaklagan yo'l -
Mening bolaligim, mening yoshligim.

Ko'chada chopqillab quvnagan sho'x qiz,
Osmonda nur sochib portlagan yulduz,
Qalbidamda to'abad qoldir o'chmas iz -
Mening bolaligim, mening yoshligim.

Muharrir:
Nizomiddin
SADRIDDINOV



Tahririyat manzili:
210100.
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi,
27-uy,
"NKMK" AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

So'z sehriga bo'lib mahliyo,
Qalamim ham ishqida yondi.
Muxlislarim uchun muhayyo,
Bir she'rdirki ilhom uyg'ondi.

Misralarda Vatan namoyon,
Quvonchlardan shamoldek yeldi.
Sog'inch hijron ila yonma-yon,
Men Vatanni kuylagim keldi.

Ona yurtim go'zal Paxtachim,
Tuproq'ingda mangu izim bor.
Lekin sendan bitta o'tinchim,
Unutmagil mening qarzim bor.

Keng dalangning og'ushlarida,
Bolaligim yayrab yotibdi.
Sinfoshim xotirasida,
Sog'inchlarim sayrab yotibdi.

Qancha sendan uzoq bo'lmayin,
Shunchalar ham yaqinimdarsan.
Ko'ngil qarib, kuzak bo'lmayin,
Bahor kabi yolg'inimdarsan.

Oh yoshligim, o'tgan kunlarim,
Eslasam til sayrab ketadi.
Sog'inchlardan so'zlar tunlarim,
Bag'ringda dil yayrab ketadi.

Umid

Bahor kabi yashnatib dilni,
Mudrab yotgan o'ksik ko'ngilni,
Sabolardek go'zal sunbulni,
Sham chirog'i bo'lib kelgil sen.

Xayolida dunyoni kezgan,
Go'zallikda tanholik sezgan,
Yolg'on ishqdan payvasta bezgan,
Parilarning shamchirog'i bo'l

Bir o'g'lonki, mardning sarasi,
Arslonsifat har bir na'rasi,
Rom etguvchi ishq asirasi,
Botir o'g'lon shamchirog'i bo'l.

Umid senga bog'langan dilim,
Sensiz so'zni aytolmas tilim,
Muhabbitsiz yashashdir-o'lim,
Ishq uyining shamchirog'i bo'l.

Munira TOG'AYEVA,
Markaziy kon boshqarmasi xodimi.

Sochlaringiz oqaribdi

Sochlaringiz oqaribdi, onajon,
Ajinlar turnadek tizim tizibdi.
Umringiz gulzorin oralab yillar,
Bugun ellik dona gulni uzibdi.

Chaqnoq ko'zlaringiz to'sibdi bulut,
Nega xira tortib qolibdi, ona.
Biz bergan ozorlar, tashvishlar, Sizning
Yoshligingiz tortib olibdi, ona.

Bizga gulzorlarni hadyalar aylab,
O'zingiz yuribsiz tikan oralab.
Biz kapalak quvib yurgan chog'larda,
Tikanlar qo'yibdi Sizni yaralab.

Bugun biz farzandlar kamolga yetib,
Sizga uzoq umr so'raymiz, ona.
Qora sochingizga yoqqan qorlarni,
Qaynoq mehrimiz-la kuraymiz, ona.

Gulshanda BOBOMURODOVA,
Zarafshon shahri.

O'zbek ayoli

Kuyida eng nafis navosi bordir,
So'zida qushlarning sadosi bordir,
Tengi yo'q dunyoda ibosi bordir,
Naqadar go'zaldir o'zbek ayoli.

Chehrasi bahorday yashnab turadi,
Ko'zlari quvonchdan chaqnaq turadi,
Borliqni borligi bezab turadi,
Naqadar nafisdur o'zbek ayoli.

Mehnatdan tolmagay kun-u tunlari,
Oilada, ro'zg'orda o'y-xayollari,
Dunyoni tebratar nozik qo'llari,
Naqadar bardoshli o'zbek ayoli.

Arziydi doimo bo'lsak ta'zimda,
Azaldan ayollar bo'lgan e'zozda,
Ehtirom etaylik har so'zimizda,
Naqadar yuksakdir o'zbek ayoli.

Ota

Farzandlarin asrab-avaylab,
Himoyalab turguvchi ulkan qal'asiz.
Shunchalar mehribon, shunchalar aziz,
Ota, Siz naqadar buyuk insonsiz.

Siz daraxtsiz - yomg'iru-do'llar,
Hatto bo'ronlar ham sindirolmagan,
Mening uchun kuchli qalqonsiz,
Ota, Siz naqadar buyuk insonsiz.

Sizga talpinaman qayda bo'lsam ham,
Tafti qaynoq, tengsiz quyoshsiz,
Mening uchun o'zni unutgan,
Ota, Siz naqadar buyuk insonsiz.

Muqaddas Vatan

Vatan - muqaddasdir menga azaldan,
Men unga bir yaproq hamda chiroyman.
Bahra olib o'sdim she'ru - g'azaldan,
Ota-onam quyosh, men esa oyman.

Bag'rida hamisha menki baxtiyor,
Yurtga xizmat qilish etdim ixtiyor,
O'z yurtimda omad bo'ldi menga yor,
Vatanim bunchalar go'zal, betakror!

Ona zamin xazina, tilloga boysan,
Bag'ringda behisob ma'danlaring bor.
Yangi O'zbekiston yurtga chiroysan,
Men bundan hamisha etgum iftixor!

Shodlik bu payt menga hamxona,
El baxtiga yaxshiyamki sen borsan,
Sen ulug'san, muqaddassan, yagona,
Sharq gavhari atalgan hur diyorsan.

Nodira UMAROVA,
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
boshqarmasi muhandisi.

